

REZYUME. Maqolada matn komponentlarini bog'lovchi vositalar haqida so'z yuritgan. Kesim shakllari, olmoshlar, leksik takror, xiazmatik konstruksiyalar, zamon va makon birliklari, partsellyatli tuzilmalar, kirish so'zlar, bog'lovchilarning matn komponentlarini bog'lashdagi xizmatlari badiiy asarlardan olingan misollar asosida tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ. В статье речь идет о средствах соединения составных частей текста. Здесь проанализированы примеры соединения компонентов текста с помощью различных форм сказуемого, местоимений, лексических повторов, хиазматических конструкций, синонимов, союзов и вводных частей, взятых из литературных произведений.

SUMMARY. The article is about the means of linking components of the text. Here the role of various forms of the predicate, pronouns, lexical repetitions, chiasmatic constructions synonyms, conjunctions and introductory clauses in linking the components of the text is given by analysing examples from literary work.

QORAQALPOQ TILIDAGI SINONIM FRAZEMALARNING BADIY ADABIYOTDAGI USLUBIY XUSUSIYATLARI

O.A.Xaytbayev – assistent o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedaqoqika instituti

Tayanch so'zlar: frazeologik birlik, frazema, kiritma, ayirma, uslubiy bo'yqodirlik, sema, graditsiya, semantik-stilistik frazeologik sinonimlar.

Ключевые слова: фразеологизм, фразема, включение, вычитание, стилистическая окраска, сема, градиент, семантико-стилистические фразеологические синонимы.

Key words: phraseology, phraseme, inclusion, subtraction, stylistic coloring, Seme, gradient, semantic and stylistic phraseological synonyms.

Tatar yozuvchisi A.Gilyazov asarlarida ishlatilgan frazeologizmlarni alohida tadqiq qilgan Z.Karimova sinonim-frazeologizmlarning to'rt tipini ko'rsatadi. Bular: semantik, stilistik, semantiko-stilistik va absolyut. *Sómsere koelu, karasına batu, kara koop* kabi frazeologizmlarning yomon kayfiyat, g'am-g'ussa, falokatni oldindan sezish kabi ma'nolarni ifodalashi, lekin ularning ma'no qirralariga ko'ra farqlanishi ta'kidlanadi. Birinchisi insonning yomon kayfiyatda ekanligini bildirsa, uchinchi katta g'am-g'ussa, falokatni sezish ma'nosini bildiradi.

Kontekst bilan bog'liq har bir frazeologizmning o'ziga xos uslubiy yuklamasi mavjud bo'lib, ba'zan biri ikkinchisining o'rnini bosa olmaydi.

Semantik-stilistik frazeologik sinonimlar, bir-birlaridan ham ma'nosi bilan, ham uslubiy xususiyatlari bilan farq qiladiganlari ko'proq uchraydi. Ular, asosan, qahramonning psixologiyasini tasvirlashda foydalaniladi: *jigin chigara, útken bez bulup, bágirne kimerú, tákate koru* kabi. Yozuvchi qahramon hayotidagi burilish nutqtasini tasvirlar ekan, bir qancha sinonimlarni gapning uyushiq bo'laklari kabi ketma-ket qo'llanadi. Matnda emotsionallik, ekspressivlik bunday qo'llanishda borgan sari ortib boradi.

Absolyut sinonimlarda esa semantikasi ham, stilistik bo'yloqlari ham bir xil: *jil dá ismi, yafrak ta selkenmi* kabi [1:15].

Qoraqalpoq adibi Sh.Seyitov o'zining go'zal badiiy asarlari, ulardagi o'ziga xos tasvir vositalari bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turadigan yozuvchi. U haqda filologiya fanlari doktori B.Yusupova shunday yozadi: "Sh.Seyitov asarlarining tili juda boy badiiy ijodiy vositalar to'plamining yig'indisi asosida paydo bo'lgan, ularning barcha imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanilgan obrazli, badiiy til, xalq tarixining so'z vositasida chizilgan badiiy kartinasi bo'lib hisoblanadi. U yozuvchining milliy tilga, so'zga, hatto tovushga bo'lgan juda e'tiborli va nozik didining, chuqur va obrazli fikr-o'ylarining, ta'sirchan ko'z qarashlarining ajoyib lisoniy-badiiy tasviri sifatida ko'zga tushadi. Shuning uchun yozuvchi asarlari o'sha badiiy va obrazli tili bilan o'quvchi e'tiborini beixtiyor o'ziga tortib turadi" [2:104].

Qoraqalpoq adibi Sh.Seyitov "Xalqabad" romanida frazeologik sinonimlardan mahorat bilan foydalangan: "Qarindasim" – dep *gegirdegin sozdi muna jatqan Sayimbet. Biz jurtqa qoydira almay jursek, raykomda otirip "qudayimuñ" ne?!* (Sh.Seyitov). *Gegirdegin sozdi (kekirdagini cho'zdi)* frazemasini "shovqin solib, dabdabali qilib gapirmoq", "qattiq ovoz bilan, o'dag'aylab gapirmoq" semalariga ega. Sayimbetning xarakteri qirralarini ochib berishda, hatto raykomda ishlaydigan qizga ham o'dag'aylab gapirishini, o'zining mansabi undan katta ekanligini pisanda qilish ma'nolarini anglatish uchun o'rinli foydalangan.

– Men bir nársege túsinbey turman?

– *Qáne-ye, Mádiyar, ne nársá?* – Sekretar *iyegin sozdi* (Sh.Seyitov).

Misolnisi *iyegin sozdi* frazemasini orqali qahramon nutqida o'zini katta olish, boshqalarni mensimaslik ohangi ifodalanishi bilan birga uning gapirishini kutish, unga navbat berish ma'nolarini ham bildiradi.

...bağanağı Sayimbet: "Ne ushin jabdilesemiz, aldi menen sonı bilip alayıq?" dep sózdi tağı bólip jiberdi. Ispolkom predsedateli Esbergen bul saparı shıdamadı:

– Aytamız-ğó, sen, Sayimbet, nege *shaqıratuğın qorazday moyınıñdı soza bereseñ!* (Sh.Seyitov). O'jarlik bilan o'z fikridan qaytmayotgan, rayispolkom raisidan aytgan fikrining isbotini talab qilayotgan Sayimbetning yana aytishishga, gap talashishga g'ashi kelayotgan, o'zining mansabini pisanda qilib, boshqalar unga qarshi gapirishi mumkin emasdek sezayotgan Esbergen Sayimbetning ushbu holatini qichqirishga chog'langan xo'rozga (*shaqıratuğın qorazday*) o'xshatishi orqali tasvirning yana ham aniqligi, ifodaliligi ta'minlangan.

Qoraqalpoq tilida "ortiq darajada vahima uyg'otmoq, qattiq qo'rqitmoq" denotativ semalariga ega bo'lgan *zárresin ushırıw, jan iyman qalmaw, jan-ıynine ot túsiw* frazemalari sinonim bo'lib keladi: *Sol kókte megir qalağa bir ketkeninde, "qara oris degen basıp kele jatır, onı kórgende sari orısı janım deysiñ! Óziñ bilgen qazaqtar Awğanstan degen jaqqa awğalı jatır" dep, zárremizdi ushırıp keldi.* (Sh.Seyitov). *Qızıl Ordağa jaqtan quyıñdata shawıp kelip: "Úyiñe ot tústi, qazaq!" dep ayğayladı-aw kep, kókte megirr! Jan iymanıñız qalmadı, ózimiz künde bir xabardan qorqıp, úreylenip otırğan nadandarmız, tipti* (Sh.Seyitov). *Qurım shápeklini kóriwden: "allabárakállá, Pedotov aynığan eken, izimnen quwğınshını jiberen eken", dep, jan iymanı qalmağan Qurbannıñ onday emesligin anıq bilgen soñ, dizine dimár eneyin degen edi, attan hám beter jortadı-á!* (Sh.Seyitov. Xalqabad). Bu frazemalardagi denotativ sema oldingi frazemaga qaraganda kuchliroq. *Soñ, basqalardıñ jan-ıynine ot tústi, shonjarımız kóship bara jatsa, bizge ne turıs!* (Sh.Seyitov). Mazkur jumladagi *jan-ıynine ot tústi* frazemasida ma'no oldingilarga qaraganda ham kuchliroq ifodalangan.

Atoqli yozuvchi K.Sultanov mazkur frazemaga sinonim bo'lgan *júregi tas tóbesine shıqtı* frazemasini yaratadi. Mazkur frazema belgini oldingilarga qaraganda ham kuchliroq ifodalaydi: – *Ne qılsın. Bedewdey kelinshekseñ. Bári bir, Gitler kelse parsha-parshañdı shığaradı. Berlinge aydap áketedi... Sáliymanıñ júregi tas tóbesine shıqtı* (K.Sultanov).

Qoraqalpoq tilida insonning toqatsizligini ifodalaydigan bir qancha frazemalar mavjud. Masalan: *Tolıbay kópshik penen shığanağımıñ arasınan tana kózlene sağalap, Jaqannıñ bas ushına kelip, saqqa júgingenin, jılıt-jılıt qarap, bir maydan otırğanın, bärin de kórdi, biraq, dim undemedi, úndemegen sayın Jaqannıñ pıtırlap, taqatı*

tawislatuǵının, hawlıǵatuǵının jaqsı bileđi (Sh.Seyitov). *Taqatı tawisılıw* frazemasına nisbatan *jüregi hawlırılıw* frazemasında ma'no kuchlıroq ifodalanadı: *Keshe qurı kelgen Elibay menen Kólibay búgin da tańnan urlanıp ketip edi ele xabar joq, sırttan sırtıldı shıǵsa júregi hawlırılıp, Tolıbay taqat tappay júr* (Sh.Seyitov). Mazkur jumlada *jüregi hawlırılıw* va *taqat tappay júrılıw* frazemaları ketmaket ishlatılıb, ma'ning kuchaytırılıshına olib kelgen. *Jüregi lúpildew* frazeması ham ma'ning me'yordan ortıqlıǵını ifodalaydı: *Tolıbay jigittiń júregin lúpildetip, biraz otırđı* (Sh.Seyitov). *Ishi-qarını pıtırılav* frazeması semantikasında "butun vujudı bilan" seması ham mavjud bo'lib, uning ma'nosi oldingilarinikiga nisbatan keng: *Ishi-qarını pıtırılav, Sayımbet Mádiyardıń keliwin de kúttirmedi* (Sh.Seyitov).

Kewiline tiyiw frazeması semantik tarkibida "birovni xafa qıladigan gap yoki ish-harakat orqalı ranjitmoq" semaları mavjud: *Jaqań ushın bul dúnyada Tolıbaydan qádirlı adam joq, ol tek usı adamnıń kewiline tiyip alıwdan qorqadı* (Sh.Seyitov). *Jüregin daǵlaw* frazemasining ma'nosi oldingi frazemanikidan kuchlıroq: *Sıdıq, basın shayqap, aldı menen Nazarbaydıń, soń basqalardıń júregin daǵladı* (Sh.Seyitov). *Jüregin jaralaw* frazemasında esa undan ham kuchlı: *Tań jarası da hesh gáp, bir pitse boldı, daq qalǵanı menen de awırtıpaydı, átteń, júrek jarası jaman, balanıń júregin jaralap aldıń ba dep qorqaman* (Sh.Seyitov). *Dáryanıń kenarın toltırıp, kóshken awılday bolıp baratırǵan paroxodtıń mashtında tolqınlanıp oynaǵan qızıl bayraq: "Qádir óz basındı qádirsiz qıldıń!" – dep basın shayqaǵanday, júregine biz suqtı* (K.Sultanov). Bu frazema orqalı muallif obrazlılık hosil qılshı bilan nutqning ta'sirchanlıǵını oshırishqa erishgan. Biraq mına jurt xalıq qatarı sıylaytuǵın bolsındaǵı adamdı, haw, bunsheili de órtey bermek bolıp pa! (Sh.Seyitov). *Wáx, shoxla kózler júregimdi órtep ketti, jeńgeja-an, ishim tútin!* (Sh.Seyitov). Mana bu misolda *jüregimdi órtep ketti* frazeması tarkibidagi "ört" o'zbek tilidagi "o't"(olov) ma'nosini beradi. Natıjada ko'chma ma'noda olovda yonganda tutun chiqıshını ma'noni kuchaytırish maqsadında qo'llangan. Qoraqalpoq tilida "Sırtı pütün, ishi tútin" frazeması mavjud bo'lib, odamning tashqi ko'rinishi xotirjam ko'rinsa ham, ichi to'la dard, alam ekanlıǵını anglatish uchun ishlatiladı. Adib bu o'rında allyuziya usulidan foydalanib, ya'ni mavjud frazema boshqalarga oldindan ma'lum bo'lganlıǵı bois, uning ikkinchi qismini jumlada qo'llash orqalı ta'sirchan ifoda yarata olgan.

Qoraqalpoq tilida "uxlamoq, orom olmoq" ma'nosida bir qancha frazemalar mavjud. Masalan: *Ha demey tań atadı. Úyiniǵe barıp, bir zaman kóz shırımın alıń*. (M.Nızanov). Misoldagi "*bir zaman kóz shırımın alıń*" frazeması "qisqa muddat orom olmoq, mizg'imoq" ma'nolarını ifodalaydı. "*Apam ba!*" jaq, Bazar eken! Uzaq künge toń tewip, beldiń qulaǵında oynap, ábden sharshaǵan hayaldıń silesi qatıp atır edi. (Sh.Seyitov). Quıyidagi frazemada ma'no oldingiga nisbatan ham kuchlıroq:

Kúni menen mıqshıyıp bel tepkenlerdiń qurıldıı oshaq basın lárzege keltirip atırsa da bunıń kirpigi ayqaspadı (Sh.Seyitov). İkkinchi misolda xurrakning kuchlılıǵını ifodalash uchun *oshaq basın lárzege keltiriliw* frazeması ishlatılǵan. Qahramonni tasvirlashda shunchalik charchagan bo'lishına qaramasdan uxlay olmaganlıǵını ko'rsatish maqsadında *kirpigi ayqaspadı* frazemasını qo'llagan. Mazkur o'rında antonim frazemalar qahramon ruhiy holatını ifodalashda mahorat bilan ishlatılǵan va matnning ta'sirchanlıǵını oshırishqa xızmat qılǵan. Shuningdek, mazkur ma'noda "*kirpigi ilinbedi*" frazeması ham ishlatiladı: *Qudaynazar bajbannıń qısqa tańǵa kirpigi ilinbedi* (M.Nızanov).

Qoraqalpoq tilida nutq ma'nosini, uning bir mazmunıy guruhi bo'lgan mutlaqo gapırmaslik, suhbatda ishtirok etmaslik ma'nosini ifodalaydigan bir qancha frazemalar

mavjud. Masalan: *Taǵı kim bar? – Hesh kim mıńq etpedi. – Sizler ne, kolxozǵa qarısız!* (Sh.Seyitov). *Adilbek lám-lim demedi. Maqsımın elti si Sarıgul tisin-tisine qoyıp shıdadı*. (M.Nızanov). *Eki kempir qol ayaǵın dúziwlep shıqqannan keyin, kúni menen kókiregi tıǵılıp turǵan maqsımın qızları: – Jan anam! – dep anasınıń ústine boyın tasladı*. (M.Nızanov). Mana bu misoldagi "*kókiregi tıǵılıp turǵan*" frazeması ham mutlaqo ovoz chıqarmaslik ma'nosini ifodalaydı. *Otırǵanlar bir birine qarasıp, suwıq demin alıssa, Sayımbetke suw quyıldı da qaldı*. (Sh.Seyitov). Misolda qoraqalpoq tilidagi *únine suw quyılıw* frazeması ma'noni oldingi frazemaga qaraganda kuchlıroq ifodalaydı.

Sh.Seyitov asarlaridagi frazeologizmlarning fonostilistik xususiyatlarını tadqiq qılǵan tilshunos B.Yusupova shunday yozadı: "Fazeologizmlardagi tovushlar ohangdoshlıǵı asar tili frazeologik tizimining katta bir tomonını tashkil qıladi. Qator kelgen so'zlarning boshida bir xil yoki o'xshash undosh va unli tovushlarning muvofıqlıǵına asoslangan alliteratsiya va assonans usuli bilan hosil bo'lgan frazeologizmlar yozuvchi so'z qo'llash usulining individual, o'ziga xos xususiyatlarını ko'rsatish orqalı qoraqalpoq tili frazeologiyasining o'ziga xos bo'lgan fonetik tabiatını, boylıǵını, badiyılıǵını dalıllaydı. Fazeologizmlardagi, shuningdek, yozuvchi asarlari tilidagi bir qancha birliklarning alliteratsiya va assonansdan tashqari boshqa ham ko'pgina fonostilistik xususiyatları maxsus tadqiqotları talab qilib turgan masalalardan bir bo'lib hisoblanadı" [2:115]. Haqiqatan ham, mutlaqo gapırmaslik, sukut saqlash ma'nosidagi quıyidagi frazemaga e'tibor bering: *Izbasqannıń gázebin kózinen oqıǵan Tolıbay da jaǵın jaylawınan jıynap aldı* (Sh.Seyitov). Bunda *jaǵın jaylawınan jıynaw* yangi frazema hosil qılınǵan va ularning birinchi tovushları bir xil bo'lib, frazemaning ta'sirchanlıǵını, tovushlar uyg'unlıǵını ta'minlagan. Bu o'rında yozuvchi yana yangilik yaratadı. Ilgarigi *jaqların jıynaw* frazeması tarkibiga *shaqqıday* (o'zbek tilida qalamtaroshday) o'xshatishni kiritish bilan frazemaning ta'sirchanlıǵını orttırishqa erishgan. *Shaqqı* ning yig'ilganda buklanish holatidan obrazlı ravishda foydalana olgan. Shuningdek, yuqoridagi frazemalarga sinonim quıyidagi frazemanı ham nutqqa kiritadı: *GPU lesseń, GPU les, "gúlsheli bala súymege jaqsı", hókımet seniń sózińdi sóylermeken, meniń sózimdi sóylermeken! – dep edi, Nazarbay pıssıydı da qaldı* (Sh.Seyitov). Misoldagi *pıssıydı da qaldı* frazeması o'zbek tilida yeli chiqıp qoldı ma'nosida ishlatiladı. Bunda qahramonning gapıra olmay qolishını obrazlı tasvirlash orqalı uslubiy o'ziga xoslik yaratgan.

Mana bu misolda ham ma'nodosh frazemalarning gradatsiya hosil qılshını kutatish mumkin: *Usınday, birew arqaw birew, eris bolıp, birewge birew arqa súyep atırǵan zamanda uyrektiń palapanınday bir óziń bir qumnuń arasında shetlep, neǵıp júrgen adamsań, ya aq úyli etilgen baymısań? degen gúdigin de ayttı* (Sh.Seyitov).

Qoraqalpoq tilida *kewili toq, kewli sharqı pálek, kewili pitip qalıw, kókiregi koteriliw* frazemaları "ishongan holda, xotirjam" semalarına ega: *Inisi Kólibay menen, balası Elibaydıń mergenligine kewili toq, gózese gójektiń kózinen ótkeretúǵının bileđi, degen menen, "burın-sońlı adam atıp kórmegen ballar, qolı qaltırıp, "álleneǵıp" tiymey, ya shala tiyip qalsa, qurıdıq!* (Sh.Seyitov). *Ayxannıń da kewli sharqı pálek, Biybayshanıń qaytıp diydinen shıǵarın bilmey atır:*

– Nan ushınan pátir, úlkenin soń kiesesń,– dep Biybayshanıń kózi kórmeytuǵın bolǵannan soń aldına esittirip qoydı (Sh.Seyitov).

Sayımbetler óshimdi alsa alıp keler, ala almasa, olarǵa da ópkem jo-oq, táńir jarılqasın, el elligin etip, "óshimdi áperemiz" desip, jigıt atlandırǵan anıyın ózine-aq kewilim pitip qaldı (Sh.Seyitov "Xalqabad"). Bunnan isi pitken aqsaqaldıń ispolkomnan qaytqan kókiregi koterileyin degen edi (Sh.Seyitov).

Bereketi ushiw, ábiger tartıp qalıw frazemalari semantik tarkibida “moddiy jihatdan yetishmovchilikka duchor bo’lish, kambag’alashish” semalari mavjud. Mazkur semalar frazemalarni bir ma’no atrofida birlashtiradi: – *Porxan ag’a ketti de elden bereket ushti*, – dedi Qayıpbek (M.Nizanov). *Biraq, awilda Porxan maqsımın xojalıǵı dım ábiger tartıp qaldı*. (M.Nizanov).

Úskini quyılıw, qabaǵı ashılmaw, kókireǵı óshıp qalıw frazemalari o’zaro sinonim bo’lib, ularning semantikasida “o’ziga ishonchi qolmaslik, kayfiyati tushish” semalari mavjud. Misollar: *Jigittın úskini quyıldı da qaldı, ya ári demedi, ya beri demedi* (Sh.Seyitov). *Ókinip bolıp, aytpay ketken joldaslarına kóp waqqa deyin qabaǵı ashılmay júredi* (M.Nizanov). Shuningdek, ushbu mazmunda **ishken ası boylarına taramaw** frazemasi ham ishlatiladi: *Biysharalardǵı ishken ası boylarına taramay, salpawsıp úylerine qaytadı* (M.Nizanov). **Sam-saz bolıw** frazemasi ham yuqoridagilarga sinonim bo’lib keladi: *Lekin, geydegeyde óz-ózinew kewli qulazıp, dástúrhan basında gáp-sózge aralaspay sam-saz bolıp otırıp qalatuǵın ádetti shıǵardı* (M.Nizanov).

Qoraqalpoq tilida: **“Sút iship awız piskew adam qatıqtı da úrlep ishedi** (o’zbekchasi – **sut ichib og’zi kuygan odam qatıqtı ham puflab ichadi**), – degan maqol bor. Uning bir qismini qo’llash orqali butun ma’nosini anglatish tilshunoslikda allyuziya deyiladi. Quyidagi misolga e’tibor bering:

– *Endi awızımız piskew shıǵar aw!*

– *Solay shıǵar. Biraq aytpay kiyatırman* (Sh.Seyitov). Misoldagi frazeologik birlikning umumtilidagi to’liq variantini aniq anglash uchun o’quvchining shu maqolning tildagi an’anaviy shaklini yaxshi bilishi kerak bo’ladi. Shunday usullarni qo’llash orqali ham nutqning ta’sirchanligini orttirishga erishiladi.

Tildagi ba’zi maqollarni foydalanishda ularning orasiga boshqa komponentlar ham qo’shilishi mumkin. Qoraqalpoq

tilida **“Suwǵa ketken adam tal qarmaydı”** (O’zbek tilida – **cho’kayotgan odam xasga yopishadi**) degan maqol bor. Sh.Seyitov mazkur maqolning orasiga boshqa komponentlarni kiritish orqali uni transformatsiya qilgan: *Sıdıqqa eremiseń, ol da bir suwǵa ketken adam, bilseń, usı aqırǵı tal qarmawları edı, qolına sen iline qoyıpsañdaǵı!* (Sh.Seyitov).

Qoraqalpoq tilida **tili ashshı, tili záhár, tili uwday** frazemalari mavjud bo’lib, “gap-so’zlari insonga salbiy ta’sir qiladigan, ko’ngliga og’ir botadigan” ma’nolarga ega. Misollar:

Túńge qaray kún ara keter “urıs”,

Telegramǵa túsken til uwday eken (O.Sátbaev).

Kelinshek bolıwdan ataqlı úsh tuwısqannıń ayırılısqanın eske alsaq qınjıladı, tili ashshı birewdıń “úsh ayǵırdı shayqastırǵan qasań baytal” dewinen qorqıp, qońsılas kelinsheklerge tiklenip qaray almas edi. (T.Qayıpbergenov). *Kúnnen kúńge ne bolıp baratırsań ózi, tiliń záhár, awızına kelgendi sandalay beretuǵın bolǵansań, anamdı sorǵanıń ayıp pa, meniń ushın ol barlıq nárseden ziyat, turmıstın mashaqatlarına kónip, pútkil ómirin maǵan arnaǵan, aq sút bergen anam ol meniń, aqırı!* (Alp Sultan).

Qoraqalpoq yozuvchisi M.Nizanov mazkur frazemaga sinonim yangi frazema yaratadi: *Sendey dostum joq meniń. Seniń tilińe julannıń záhári jaǵılǵan* (M.Nizanov). Frazelogik transformatsiya usulidan foydalanish orqali uning tarkibiga ayrim qismlarni kiritgan. Bu o’zgarish frazemaning ta’sirchanligini yanada orttirishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, adiblar sinonimi bo’lgan frazemalarni ijod qiladilar va tasvirlanayotgan voqea-hodisaga muvofiq frazeologizmning uslubiy bo’yoqdorligini oshirishda va qahramonlarning portretlarini yaratishda, ularning o’ziga xos xususiyatlarini ko’rsatishda mohirona foydalana olgan.

Adabiyotlar

1. Каримова З.С. Поэтика фразеологизмов в прозе Аяза Гилязова. АКД. – Уфа: 2008. – С. 15.
2. Yusupova B.T. Fonostilistika. Sh.Seyitovtın “Xalqabad” romanı tili frazeologiyasınıń fonostilistikalıq analizi. – Tashkent: “Yosh avlod matbaa”, 2021.
3. Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining izohli lug’ati. – Toshkent: 1992. 379-b.
4. Eshbaev J. Qaraqalpaq tiliniń qisqasha frazeologiyalıq sózligi. – Nókis: “Qaraqalpaqstan”, 1985. 158-b.
5. Paxratdinov Q., Bekniyazov Q. Qaraqalpaq tiliniń frazeologizmler sózligi. – Nókis: “Qaraqalpaqstan”, 2018. 160-b.

REZYUME. Maqolada qoraqalpoq yozuvchilarining tildagi frazemalardan asarning emotsional-ekspressivligini oshirishda, qahramonning ayrim xususiyatlarini bo’rttirib tasvirlashda ulardan ustalik bilan foydalanadilar. Shu bilan birga ularning tarkibiga o’zgartirishlar kiritish, ularni qayta shakllantirish orqali ham ta’sirchanligini orttirishga adiblarning ustalik bilan foydalanishlari misollar asosida ko’rsatib berilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье каракалпакские писатели мастерски используют фразы в языке для повышения эмоциональной выразительности произведения, отображая определенные черты характера героя. В то же время на примерах показано умелое использование мудрецов для достижения выразительности даже путем внесения изменений в их содержании, их переформулировки.

SUMMARY. In this article, Karakalpak writers masterfully use phrases in the language to enhance the emotional expressiveness of the work, reflecting certain character traits of the hero. At the same time, the examples show the skillful use of sages to achieve expressiveness even by making changes in their content, their reformulation.

VATAN KONSEPTINING GASTRONOMIK NOMLAR BILAN IFODALANISHI

M.R.Xolmo’minova – tayanch doktorant

O’zbekiston milliy universiteti

Tayanch so’zlar: konsept, vatan konsepti, milliy-madaniy tushuncha, lingvokulturemalar, gastronomik nomlar.

Ключевые слова: концепт, концепт родины, национально-культурный концепт, лингвокультуры, гастрономические названия.

Key words: concept, homeland concept, national-cultural concept, linguistic cultures, gastronomic names.

Lingvokulturemalar tarkibi belgi-ma’no-tushuncha-predmetlardan tashkil topgan. Ular to’g’ri va ko’chma ma’nosidan farqli o’laroq, inson madaniyati va tili darakchisidir. V.V.Vorobyev “lingvokulturologiya – sintezlovchi toifadagi kompleks ilm sohasi bo’lib, u madaniyat va til o’rtasidagi o’zaro aloqalar va ta’sirlashuvlarni o’rganadi [9:76]. Bu jarayonni yagona lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunga ega birliklarning yaxlit tarkibi sifatida mazkur jarayonni zamonaviy nufuzli madaniy ustuvorliklarga (umuminsoniy me’yorlar va qadriyatlar) qaratilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiradi”, – deb ko’rsatadi. Ushbu

tushunchalarning o’zaro farqli jihatlarini professor O.Yusupov quydagicha izohlaydi. “Lingvokulturema - o’z semantikasida (ma’nosida) madaniyatning biror bo’lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligi. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo’lagini aks ettiruvchi so’zlar, frazeologik birliklar, so’z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko’rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o’sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan o’zining mazmun va ifoda